

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BADIY MAHORATI VA MUMTOZ ADABIYOT

Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakulteti
2-bosqich talabasi*

Abstark: Ushbu maqolada Mirzo Boburning asarlari tahlili va uning beqiyos mahorati xususida fikr yuritiladi .

Kalit sòzlar : Bobur , Boburnoma , mumtoz adabiyot , ekologiya , harbiy yurishlar.

Abstract : This article analyzes the works of Mirza Babur and reflects on his incomparable skills.

Key words : Babur, Boburnoma, classical literature, ecology , military campaigns .

Абст рактний: В данной статье анализируется творчество Мирзы Бабура и размышляется о его несравненном мастерстве.

Ключевые слова : Babur, Boburnoma, классическая литература, экология , военные походы.

Mustaqillik- eng oliy ne'mat . Necha zamonlar , asrlar òtmasin insoniyat ong-u tafakkurida birgina sobit tushuncha ana shu . Yuksak ilohiy ne'mat - istiqlolimiz nafaqat turmush tarzimizga , balki madaniy -ma'naviy hayotimizga ham teran ta'sir kòrsatdi . Vatandoshlarimizga òzligini , tarixini tanitib , bizni bir xalq sifatida shakllanishimizda mustahkam qadam bòldi . Yurtdoshlarimizni barkamol shaxs qilib tarbiyalash yòlidagi sa'y-harakatlar boshida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning turganligi va axloqiy -ma'naviy tarbiyaning Davlat dasturi maqomiga kòtarishi ham mustaqillik sharofati hisoblanadi .Shukronalar bòlsinki , jannatmakon Vatanimizda bugun hur fikrlilik shabbodasi esmoqda . Asrlar bağrida bòy chòzgan mumtoz badiiy yaratmalarni òz qonunlari asosida tahlil va tadqiq qilish tobora teranlashib bormoqda .Badiiy mumtoz adabiyotimiz dunyo yuzini kòrgan san'at durdonalaridan biridir . Uning bu qadar kòkka parvoz qilishi bu shunchaki mehnat emas , bu asl jasoratdir . [1] Bu yòlda uluğ siymolarimiz Amir Temur , Mirzo Uluğbek , Alisher Navoiy merosi tahsinga loyiqdir . Shu òrinda Zahiriddin Muhammad Bobur ham fikrimizni yanada quvvatlantiradi . Mavlono Boburning òziga xos ijod namunalari nafaqat xalqimiz orasida , balki butunjahon olimlari va kòpgina adabiyot mutaxasislari tomonidan e'tirof etilgan va òrganilib kelinmoqda . Xususan mumtoz adabiyotimiz tadqiqotchilarining keyingi yuz yildagi taniqli vakillari sifatida kanadalik Mariya Sabtelni va Elizar Birnbaum, germaniyalik Ingeborg Baldauf va Zigrid Klaynmihel, Vengriyadan Benedek Peri va Ferench Chirkes, fransiyalik Mark Toutant, turkiyalik Fuod Ko'prulzoda, Zaki Validi To'g'on, Kamol Eraslan, Osman Sertkaya, Tanju Seyhan, ozarboyjonlik Hamid Orasli, Jannat Nag'iyeva singari olimlarni ko'rsatish mumkin. Ularning eng e'tiborlisi olim , professor Tanju Seyhan turkiy tillar, eski òzbek tili tarixi bòyicha tadqiqotlar olib boradi . Boburning masnaviy tarzida yozilgan , Islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bağ'ishlangan "Mubayyin " asarini yig'ma matnini tayyorlab , sòzboshi bilan 2004-yil Turkiyada nashr ettirdi .2013-yili esa "Turkiyadagi Bobur haqidagi tadqiqotlar " mavzusida ma'ruzalar òqiydi . Benedek Peri ilmiy qiziqishlarining katta qismini o'zbek mumtoz adabiyoti masalasiga oid izlanishlar egallaydi. U ushbu yo'nalishda ishlab, bir qancha vaqt Hindistonda ilmiy safarda bo'lgan. Turkiy tilli adabiy manbalar, jumladan, Bobur va boburiylar eski o'zbek tilida yaratgan asarlar va ularning qo'lyozmalarini o'rganish bilan shug'ullangan. Izlanishlari samarasi o'laroq eski o'zbek tilini boburiylar saroyida, sulola oilalarida o'zaro muloqot tili sifatida asrlar davomida saqlanib qolganini aniqlagan. Ayni paytda turkiy tilda she'r yozish an'anasi boburiylar muhiti shoirlari ichida XIX asrda ham davom etganini oydinlashtirgan.[2] Shu òrinda yana bir ajoyib fakt borki , Mark

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

Toutant fikricha : " Ğarbda Navoiydan kòra Boburni kòproq bilishadi ". Muhtaram ajdodimiz Bobur davlatshunoslik , fiqhshunoslik , tarix , tilshunoslik , san' atshunoslik , etnografiya sohalarida òzining keng tafakkur olamiga ega , yetuk , zakovatli shaxs bòlgan . Ammo bilamizki , har doim ham inson xohlagandek bòlavermaydi . U butun umri davomida yuragida sòngsiz iztiroblar va cheksiz Vatan soĝinchida òtdi .

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Shu bilan birga Bobur lirikasida chin insoniy fazilatlar yuksak baholanadi ; oliyjanob , sof tuyĝular uluĝlanadi ; adolatparvarlik oqlanadi ; sadoqat , muhabbat qadrlanadi hamda insonparvarlik tuyĝulari mahorat bilan madh etiladi .

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jaf qilsa, jaf topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,

Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur.

Muhabbat òlmas mavzu . Unga har doim yangi-yangi ĝoyalar tuĝilaveradi . Bobur ham bu borada bebaho asarlar uchun qalam tebratgan . Uning ishqiy ĝazallarida ajib sehr bòlib , òquvchini qalbiga armonlarni esga soladi , quvonchni uygòtadi . Samimiylik , soddalik va ta' sirchan ifoda yuraklardagi nafis hislarni tòlqinlantiradi .

O'zni, ko'ngul, aysh bilan tutmoq kerak,

Bizni unutmog'ni unutmog' kerak.

Ayshu tarab gulbunig'a suv berib,

G'ussa niholini qurutmog' kerak.

Tiyra turur zuhd damidir ko'ngul,

Ishq o'ti birla yurutmog' kerak.

Har nimag'a ham yema, g'am ko'p turur,

Aysh bila o'zni unutmog' kerak.

Qo'yma mashaqqat aro, Bobur, ko'ngul,

O'zni farog'at bila tutmog' kerak.

Boburning iste'dodini mukammal va badiiy tarannum etuvchi asari bu Boburnomadir .Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti ustuni. Jahon adabiyoti va manbashunosligida muhim va noyob yodgorlik.Bu asarda Òrta Osiyodan boshlab Hindistongacha bòlgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan. Voqealar Andijon , Samarqand , Xòjand , Hirotndan boshlab , Kobul va Agragacha bòlgan qamrovga ega . Asar haqli ravishda "turkiy nasrning eng yaxshi asari" deb nomlangan. Ushbu kitob tarixiy yozuvlarning qisqa ma'lumoti emas. Asarda Boburning faoliyati, uning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlari, boy sarguzasht hayotining barcha voqealari tasvirlangan. Bugungi kunga qadar "Boburnoma" dunyoning 31 tiliga tarjima qilingan.[3] Temuriylar tarixi haqida batafsil so'ylaydigan yirik manba. Asarning o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari O'zbekiston fanlar Akademiyasi sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ko'plab dunyoviy, jumladan, fors, ingliz, rus, turk, golland, frantsuz tillariga tarjima qilingan. Bu asarda e'tirof etiladigan qirralari juda kòpligi ayniqsa , ekologiya masalasiga jiddiy yondashuv hozirgi zamon mutaxassislarini ham hayratlantiradi . Prezidentimiz tabiri bilan aytganda : " Boburning ekologiya haqida yozganlarini òqisangiz , hozirgi davrda yashaydi , deb , òylaysiz ". [4] Boburnomada Farg'onadan Hindistongacha bo'lgan yer, joylar, tog', o'lkalarda o'sadigan daraxt, o'simlik, o't-o'lan, gullar, ularning turlari, oziq-ovqat va tibbiy xususiyatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.Shuningdek asarda ekologiya masalasiga , tabiiy muhitni muhofaza qilish , atmosfera , havosiga taaluqli òzining fikr -

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

mulohaza , qarashlarini yozgan . Bobomiz bu tur ilmlarni faqat qo'g'ozlarda aks ettiribgina qolmay , o'zi ham ular ustida amaliy tajribalar olib boradi . [5] Masalan , bolaligida Andijonda o'zi sevgan o'simliklarini Hind yerlarida ham moslashishi uchun sharoit yaratadi . Agradagi " Hasht bixisht " bo'g'ida Hindiston iqlimida Bobur buyrug'iga binoan qovun , uzum , olxori , hamda O'rta Osiyo gullari keltirilib o'stiriladi . Qolaversa , Boburning tabiatga mehrini u barpo ettirgan bo'g'larida va albatta mashhur Bo'gi Boburda bilish mumkin .

Bobur degan nom "yolbars" yoki "sher " degan ma'noni anglatib , jangdagi jasorati uchun berilgan edi . (Asl ismi – Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo).U harbiy jasorat va zehnga ega iqtidorli harbiy rahbar edi . Yelkasidagi bu qadar katta ma' suliyatlardan ortib yozgan asarlarining umumiy hajmi 400 dan ortiq. Shulardan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy. Bobur tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda ham asarlar yaratgan.Shuningdek xalq she'riyatiga ham katta qiziqish bilan yondashgan .[6]

O'lum uyqusig'a borib jahondin bo'ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do'stlar, ko'rgaysiz uyquda.
Nekim taqdir bo'lsa, ul bo'lur tahqiq bilgaysiz,
Erur jangu jadal, ranju riyozat barcha behuda.
O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor
Ki, bir dam g'am yemakka arzimasi dunyoyi farsuda.
Zamona ahli ichra, ey ko'ngul, oyo topilg'aymu,
Seningdek dard paymovu meningdek dard paymuda.
Ulusdin tinmadim umrimda hargiz lahzaye, Bobur,
Magar o'lsam bu olam ahlidin bo'lg'aymen osuda.

Xulosa

Xulosa o'rnida Mirzo Muhammad Haydarning fikrlarini aytish joizki : "U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turardi. Turkiy she'rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas". Ulu'g' siymo -Boburning xotirasi abadiylashtirishdek masuliyatli vazifa biz avlodlar uchun katta sharafdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi " . 2006
2. Saviya.uz - <https://saviya.uz/#>
3. Yangi O'zbekiston – www.yuz.sayti
4. Z.M. Bobur hayoti va ijodi vikipediya
5. Gulxan - <https://uzbekistan.travel/ru/>
6. [uzbekistan.travel- https://uzbekistan.travel/ru/](https://uzbekistan.travel/ru/)